

MILLIY CHOLG‘U ANSAMBLAR TASHKIL ETILISHINING ILMIY NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Ziyavutdinova Zulfiyaxon Useinovna

Andijon davlat pedadgogika instituti

“Tasviriy san’at va Musiqa ta’limi” kafedrası

Dotsenti

dilyadj88@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124188>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O‘zbekistonda milliy ansambllar shakllanishining ijtimoiy falsafiy tahlili (O‘zbek milliy cholg‘u ansambllari misolida)” mavzusida yozilgan. Unda cholg‘u ansambllarining shakllanishi hamda rivojlanishining tarixiy bosqichlari, musiqashunos olimlarning jamoaviy ijro san’ati haqidagi ilmiy qarashlari haqida nazariy ma’lumotlar bor.

Kalit so‘zlar: shaxs, jamiyat, tafakkur, ma’naviyat, musiqa, kompozitor, qo‘shiq, maqom, tovush, obraz, san’at.

SCIENTIFIC THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF NATIONAL MUSICAL ENSEMBLES

Abstract. This article is written on the topic “Social-philosophical analysis of the formation of national ensembles in Uzbekistan (in the example of Uzbek national musical ensembles)”. It contains theoretical information about the historical stages of the formation and development of musical ensembles, the scientific views of musicologists on collective performance art.

Key words: personality, society, thinking, spirituality, music, composer, song, status, sound, image, art.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ АНСАМБЛЕЙ

Аннотация. Данная статья написана на тему «Социально-философский анализ формирования национальных ансамблей в Узбекистане (на примере узбекских национальных музыкальных ансамблей)». Содержит теоретические сведения об исторических этапах становления и развития музыкальных ансамблей, научные взгляды музыковедов на искусство коллективного исполнительства.

Ключевые слова: человек, общество, мышление, духовность, музыка, композитор, песня, статус, звук, образ, искусство.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda musiqa san’atiga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori¹, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.12.2021 yildagi PQ-36-sonli “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.11.2022 yildagi 633-sonli “Madaniyat va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 2-fevraldagi PQ-112-sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

san'at muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash va ularni davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori, va shunga o'xshash musiqa san'atini rivojlantirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilingani buning yaqqol tasdig'idir.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va ashula birligini o'z ijtimoiy va madaniy hayotlarining muhim bo'lagi deb bilgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onalarning orzusi sanalgan, shu niyat bilan xonadonda biron cholg'u soz saqlanishi odat qilingan. Kuy va ohangni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, ruhiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, xulq-odobi va yaxshi fazilatlarini shakllanib borishida katta ta'sir kuchiga ega bo'lishi chuqur anglab yetilgan. Xalq cholg'ularining tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ma'lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan deb taxmin qilinadi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda musiqachilikda eng dastlab urma zarbli cholg'ular, keyinchalik shovqinli cholg'ular (ijrochilar qarsak bilan ritmni takrorlaydilar va shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytiradilar), vaqtlar o'tib esa asta-sekin xalq ustalari tomonidan naysimon xunggaklar, shiqildoqlar, surnay va nay (qamish va bambuk poyalaridan) kabi sozlar yuzaga kela boshlagan. Asta-sekin torli-mizroblil va torli kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'lgan. Tarixning dalolat berishicha O'rta asr Sharq madaniyati quchogida shakllangan cholg'u sozlari (nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobuzlar) o'tgan ko'p asrlar davomida o'zlarining tovush turlari va xususiyatlarini yo'qotmay bizgacha yetib kelgan. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligining shakllanishi va rivoj topishi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Shu davrdan boshlab ko'pchilikka tanila boshlagan dutorchilar, tanburchilar, doirachilar, naychilar va surnaychilar, rubobchi va g'ijjakchilar ijod eta boshlaganligi, xalq hayotini turli jabhalarini tarannum etuvchi yangi kuy va qo'shiqlar paydo bo'lganligi ma'lum. Bu yillarda Qo'qon shahri, mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylangan bo'lib, unda o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini egallash bo'yicha o'ziga xos maktab yaratilgan. Maqomlar ijrosida xonandalar bilan bir qatorda tarkibi turlicha bo'lgan o'zbek xalq cholg'u ansambllari ham ishtirok etgan. Farg'ona cholg'uchilari ham ijrochilik mahoratini faol o'zlashtira boshlaganlar. Cholg'uchilar ansambliga Buxoroda tanbur va doira, Xorazmda esa dutor, g'ijjak, bo'lamon, doira yoki tanbur garmon, rubob, doira ham kirgan. Farg'ona va Toshkent viloyatlarida cholg'uchilar ansambllari 8-10 kishidan iborat bo'lgan. Ansambllar nay, qo'shnay, chang, rubob, dutor, tanbur, doira va g'ijjak kabi cholg'ulardan tashkil topgan.

“Ansabl” fransuzcha “ensemble” – birgalikda² ya'ni, birgalikda ijro etish degan ma'noni bildiradi. Tarixning dalolat berishicha XIX asrning oxiriga kelib ansambllar birmuncha rivojlandi, ularning asosiy turlari shakllandi, ansambllar tarkibiga yangi cholg'ular kiritilgan, cholg'ular tovushlarini yanada yoqimli qilish, diapazonlarini kengaytirish va ijro imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgan.

Cholg'u asboblari – musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblari; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansabl, orkestr va boshqa turli guruhlar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir Musiqa cholg'u asboblarining sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazotm tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg'u asboblari sadosining sifati, ko'pincha, muayyan cholg'u asbobining shakli,

² I.Akbarov. Musiqa lug'ati. Toshkent 1986 yil. 7-bet.

umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialga bogʻliq. Musiqa cholgʻu asboblari qadimdan qamish, bambuk, yogʻoch, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yongʻogʻi, qovoq va shu kabilardan tayyorlangan.

Sadolanish xususiyatini qoʻshimcha vositalar, ijrochilik uslublari, masalan, torli sozlarni tirnab-chertib chalish, flajolet va shu kabi turli uslublardan foydalanish mumkin. Baʼzi musika bezaklari yordamida oʻzgartirish mumkin. Paydo boʻlishi insoniyat tarixining ilk davrlariga toʻgʻri keladi; mukammallanishi esa musiqqa sanʼati va ijrochilikning rivojlanishi hamda Musiqa cholgʻu asboblarning rivojlanishi texnika taraqqiyoti bilan ham bogʻliq.

Musiqa cholgʻu asboblari tovush manbalariga qarab guruxdarga, ijrochilik uslubi (yoki ishlatilgan mexanizmi)ga qarab guruhchalarga, oʻziga xos qoʻshimcha belgilariga qarab xillarga boʻlinadi.

Musiqa cholgʻu asboblari, asosan, torli (xordofonlar), puflab chalinadigan (aerofonlar), teri qoplamali (membranofonlar), tilchali (gemidiofonlar), plastinkali, va elektron musiqqa cholgʻulari guruhlariga boʻlinadi.

“Torli cholgʻu asboblarning guruxchalari: kamonli sozlar (skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, oʻzbek sozlaridan gʻijjak, koʻbiz, sato va boshqalar);

Chertib chalinadigan sozlar (arfa, gusli, sitra, gitara, domra, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, doʻmbira va boshqa;

Urrib chalinadigan torli sozlar (chang, simbali va boshqalar);

Klavishli urib chalinadigan sozlar (klavikord, fortepiano, royal);

Klavishli chertib chalinadigan sozlar (klavesin va uning turlari).

Puflab chalinadigan cholgʻu asboblarning guruxchalari: tilchali sozlar (surnay, qoʻshnay, boʻlamon, shoxnay, klarnet, goboy va b.), tilchasiz sozlar (naylar, fleytalar), mundshtukli sozlar (truba, valtorna, tuba, karnay va b.), pnevmatik klavishli sozlar (organ va uning turlari)”³.

Tilchali cholgʻu asboblarning boʻlinmalari: pnevmatik klavishli sozlar (fisgarmoniya, bayan, akkordeon va b.), chertib chalinadigan sozlar (changkoʻbiz va uning turlari), urib chalinadigan sozlar (fleksatonlar). Teri qoplamali urib chalinadigan cholgʻu asboblarning guruxchalari: sozlanadigan (litavrallar), sozlanmaydigan (nogʻora, doyra, baraban, tamburin va b.) cholgʻu asboblari. Plastinkali cholgʻu asboblarning guruxchalari: urib chalinadigan rezonatorsiz sozlar (ksilofonlar va b.), urib chalinadigan rezonatorli sozlar (ovoz beradigan plastinkalari ostida maʼlum hajmdagi rezonatorlar — trubkalar, boʻsh idishlar oʻrnatilgan metallofon, marimba, vibrafon va b.), klavishli urib chalinadigan sozlar (chelesta). Idiofonlarning guruxchalari: sozlanadigan (orkestr kolokoli, koʻngʻiroqchalar, gong va b.), sozlanmaydigan (tarekalar, tamtam, marakas, qayroq, qoshiq, safoil, likop, patnis, mis lagan, zang va b.) cholgʻu asboblari.

Musiqa cholgʻu asboblari baʼzida xalq va professional (orkestr) turlarga ham boʻlinadi. Orkestr cholgʻulari kompozitor tomonidan yaratilgan, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan koʻp ovozli musika asarlari ijrosiga moslashtirilgan. Xalq cholgʻulari esa maʼlum millat (elat) monodik musiqqa ijrosi uchun qoʻllaniladi va musiqiy tovush quroli boʻlish bilan birga, moddiy madaniyat mahsuli hamdir. Mukammal shaklida xalq badiiy tafakkuri, nafosat tasav-

³ Sh.Umarov. Musiqa cholgʻularini oʻrganish. Toshkent 2018. 9-bet.

vurlari, ramziy ma'nolar aks etgan. Cholg'ular xalq hayotida sof estetik vazifa bajarishdan tashqari shaman, baxshilar, afsungarlar ruhiyatga ta'sir o'tkazishda, harbiylar, cho'ponlar, dehqonlar tomonidan boshqaruvchi, qo'rqituvchi, chorlovchi tovush quroli sifatida foydalanib kelingan.

XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida xalq musiqachilari orasida ustoz-shogirdlik an'analarining rivoj topishi, iqtidorli yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ularga musiqa ilmini o'rgatish natijasida O'zbekistonda ko'plab mohir sozandalar yetishib chiqqanligi ma'lum. Jumladan, Buxoro va Samarqandda Ota G'iyos G'aniev, Ota Jalol Nosirov, Lev Boboxonov, Hoji Abdurahmon Umarov kabi tanburchilar, Qori Karomat, Hoji Abdulaziz Abdurasulov kabi dutorchilar, Farg'ona va Toshkentda doirachi Usta Olim Komilov, nog'orachi Yusuf qizik Shakarjonov, qo'shnaychilar Ahmadjon Umrzoqov, Xayrulla Ubaydullaev, tanburchi Qo'zjon Madrahimov, dutorchi Abdusoat Vahobov, naychi Abduqodir Ismoilov, Xorazmda esa, tanburchilar Matpano ota Xudoyberganov, Matyoqub Harratov, Qurbon Nazar Abdullaev (Bola-Baxshi), Madrahim Yoqubov (Sherozi)lar shinavandalar orasida mashhur bo'lganlar⁴. O'zbekistonda birinchi bor davlat tasarrufidagi ansamblning tashkil etilishi Muhiddin Qori Yoqubov nomi bilan bog'liq. Uning tashkilotchiligi va bevosita rahbarligida 1926 yil o'zbek musiqa madaniyati tarixida ilk bor 21 ijrochidan iborat davlat va sayyor konsert-etnografik truppasi tashkil etildi⁵. Mazkur ansamblga Farg'ona vodiysining o'sha davrda mashhur bo'lgan usta cholg'uchilari, xonandalari, raqqos va raqqosalari ishga taklif etilgan. Cholg'uchilar tarkibi ansamblning eng nufuzli qismi bo'lib, ijodiy jamoaning o'zagini tashkil qilar edi. Ansambl Yusufjon qiziq Shakarjonov (nogora, rahbar), Usta Olim Komilov (doyra), To'xtasin Jalilov (gijjak), Ahmadjon Umrzoqov (qo'shnay), Abduqodir Ismoilov (nay), Ota Xo'ja Saydazimov (dutor), Xayit-oxun (tanbur), Muhitdin Hoji (tanbur), Mamat bobo (doira), Xudoyberdi (surnay), Madaminjon Is'hoqov (bo'lamon) kabi mashhur sozandalardan tashkil topgan edi. Bunday musiqiy-etnografik ansamblning tashkil bo'lishi, uning muvaffaqiyatli konsertlari va keng jamoatchilik orasida, oddiy xalq ichida hurmat qozonishi O'zbekistonda milliy musiqa san'atini chinakam rivojiga katta turtki bo'ldi. "Taniqli sozanda va xonanda Yunus Rajabiy 1927 yili O'zbekiston radio qo'mitasi qoshida 12 cholg'uchidan iborat xalq cholg'ulari milliy ansambl tashkil etadi"⁶. Bu ansamblga Toshkentdagi o'sha davrning mashhur musiqachilari-qo'shnaychi Xayrulla Ubaydullaev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajabov, Maqsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Maxmud Yunusov, naychilar Dadali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nig'matjon Do'stmuhammedov, Fahriddin Sodiqov, Mamatjon Rasulov, doirachi Dadaxo'ja Sottievlar jalb etilgan edilar. Ansambl repertuarida o'zbek xalq kuylari bilan bir qatorda zamonaviy bastakorlarning, jumladan Yu.Rajabiyning «Chorgoh», «Ko'chabog'i», «Bayot», «Birlashingiz», «Ilgor», «Mirzadavlat» kabi asarlari bor edi⁷. Keyinchalik bu ansamblida respublikaning mashhur xonandalari, toshkentlik mulla To'ychi Toshmuhammedov, buxorolik Domla Halim Ibodov, samarqandlik Hoji Abdurahmon Umarov, xorazmlik Matyoqub Harratov, Safo Mug'anniy, toshkentlik Nazira

⁴ Sh.Umarov. Musiqa cholg'ularini o'rganish. Toshkent 2018. 7-bet.

⁵ S.Azizboev. An'anaviy cholg'u ansambl. Musiqa nashriyoti. Toshkent 2009 yil. 6-bet.

⁶ N.Usmonova. "Musiqa fidoiysini xotirlab" maqolasidan. Manzil: <https://uza.uz/posts/232661>

⁷ Abdufattox Abdugapparov. Cholg'u ijrochiligini o'qitish uslubiyoti. Toshkent 2020. 21-bet.

Ahmedova kabi taniqli san'atkorlar ishlagan. Yillar davomida ansambl o'sdi, ijrochilik repertuari boyidi, xalq e'tiborini qozondi. Tez fursatda ansambl O'zbekistonning eng yaxshi musiqiy jamoalari safidan o'rin olganligi musiqa shinavandalariga yaxshi ma'lum. 1936 yili tashkil topgan O'zbek davlat filarmoniyasi (direktori Muhiddin Qori Yoqubov, musiqa rahbari To'xtasin Jalilov) qoshida 98 ijrochidan iborat «Etnografik unison ansambli», 30 ijrochidan iborat dutorchi qizlar ansamblari tuziladi⁸. Ansamblda ko'plab mohir sozandalar, san'at ustalari faoliyat ko'rsatadilar, jamoaning ko'p yillik ijodiy faoliyati esa o'zbek musiqa san'atini yanada rivojlanishiga, uni keng ko'lamda targ'ib qilinishiga samarali xizmat qiladi. 1939 yilda esa naychi A.Ismoilov, A.Umrzoqov va changchi F.Sodiqovlar Moskvada o'tkazilgan xalq cholg'ulari ijrochilari Butunittifoq ko'rigida 2-darajali diplom bilan taqdirlanganlar. Shundan keyingi yillarda O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshida ko'plab professional musiqa jamoalari, viloyat va tumanlarda, maktablar, o'quv yurtlar va madaniyat uylarida o'nlab, yuzlab cholg'uchilar ansamblari tashkil etildi va bugunda faoliyat yuritib kelmoqda. Ular: O'zbek teleradio kompaniyasi qoshida Yu.Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli (rahbari Abduhoshim Ismoilov)⁹, M.Turg'unboeva nomidagi «Bahor» xalq raqs ansambli (rahbari Ma'mura Ergasheva), filarmoniya qoshidagi «Shodlik» ashula va raqs ansambli (rahbari Qodir Mo'minov), «Tanovar» ansambli (rahbari Yulduz Ismatova), «Lazgi» ashula va raqs ansambli (rahbari Raxmatjon Qurbonov), bolalar «Bulbulcha» ansambli (rahbari Shermat Yormatov), Aviasozlar madaniyat saroyi qoshidagi «Parvoz» ansambli (rahbari Sharip Janaydarov), Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi «Qaldirg'och» ansambli (rahbari Shermat Fayzullaev), Qoraqalpog'iston filarmoniyasi qoshidagi «Ayqulosh» ansambli, Buxoro viloyatidan «Zarafshon» ansambli kabi ko'plab ijodiy jamoalar shular jumlasidandir. O'zbekistonning mustaqilligi san'atni, jumladan musiqa san'atini yanada erkin va keng rivojlanishi uchun, milliy musiqiy qadriyatlarimizni tiklash uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri ansambl mashg'ulotlari jarayonida san'at sirlarini yanada chuqur o'rganish, ijrochilik mahoratini puxta egallash va ayni paytda san'at orqali o'quvchi yoshlarning dunyoqarashlari va ma'naviyatlarini o'stirish, ular ongida milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish, o'z vatanini sevuvchi, uning ravnaqi uchun astoydil xizmat qiluvchi kishilar qilib tarbiyalash sir-asrorlarini puxta o'zlashtirishdan iboratdir.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning ma'qullashi faoliyatimizga berilgan yuksak bahodir. - Toshkent: O'zbekiston. NMIU. 2-jild 2018. -B. 448
2. Karamatov F. "O'zbek xalqining musiqiy merosi". - Toshkent: 1978 yil.
3. Matyoqubov O. Kuch. -Toshkent: Musiqa nashriyoti. 2004. - B. 292, 314
4. Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. Asboblar to'plami. -Toshkent: Yangi asr avlodi. 2004. - B. 105

⁸ B.S.Salixov, B.Matyoqubov. O'zbekistonda damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi tarixi. Toshkent 2007. 39-bet.

⁹ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

5. Djalilova, D. (2024). Formation of hermeneutic competence of future music education teachers in the analysis of music texts. в international bulletin of engineering and technology (T. 4, Выпуск 1, сс. 34–37).
6. Djalilova, D. O. (2023). CHOLG'U ANSAMBLI VA MUSIQIY ASAR USTIDA ISHLASH. SCHOLAR, 1(28), 277–287. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10026753>
7. A.Qambarov,S.Mannopov, M.Najmeddinova O‘zbek san’ati tarixi “Farg’ona” nash 2021.